



## THE NEED TO DEVELOP AN INFORMATION CONCEPT FOR COVERING STATE LANGUAGE POLICY

**Shaxobiddin Musayev**

Researcher at UzJOKU

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19464731>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Mass media, state language, concept, Special Council, promotion, encouragement, artificial intelligence, coverage.*

### ABSTRACT

*The article reveals the necessity of developing a comprehensive information concept aimed at coordinating the activities of mass media in covering reforms directed at accelerating the implementation of the Law "On the State Language" and strengthening the status of the Uzbek language as the state language.*

## DAVLAT TILI SIYOSATINI YORITISH BO'YICHA AXBOROT KONSEPSIYASINI YARATISH ZARURATI

**Shaxobiddin Musayev**

O'zJOKU tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19464731>

### ARTICLE INFO

Received: 24<sup>th</sup> March 2026

Accepted: 30<sup>th</sup> March 2026

Online: 31<sup>st</sup> March 2026

### KEYWORDS

*Ommaviy axborot vositalari, davlat tili, konsepsiya, Maxsus Kengash, targ'ibot, rag'batlantirish, sun'iy intellekt, yoritish.*

### ABSTRACT

*Maqolada "Davlat tili haqida"gi qonun ijrosini jadallashtirish hamda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi maqomini mustahkamlashga qaratilgan islohotlarni yoritishda ommaviy axborot vositalarining o'rne va faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan konsepsiyaning zarurati ochib berilgan.*

Fan-texnologiyalarning tezkor rivojlanishi juda ko'plab tillar qatorida o'zbek tiliga ham ta'sir etmoqda. Globallashuv sharoitida davlat tilini asrash va taraqqiy ettirish O'zbekistonni boshqaradigan uch hokimiyatning ustuvor vazifalari qatorida turishi kun tartibidan tushmaydigan vazifadir.

Negaki, davlat tili nafaqat muloqot vositasi, balki milliy o'zlik va madaniy merosning asosiy unsuri hisoblanadi. Shunday ekan til siyosatini samarali amalga oshirishda O'zbekistonda to'rtinchi hokimiyat darajasiga erishishga harakat qilayotgan ommaviy axborot vositalarining o'rne beqiyosdir.



“2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi”da “ommaviy axborot vositalari va davriy nashrlarda davlat tilini o‘rganishga bag‘ishlangan turkum dastur va ruknlar tashkil qilish”<sup>1</sup> masalasi alohida ta’kidlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat tilini yana-da rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-son qarori bilan tasdiqlangan 2020 — 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2025-2026-yillarda amalga oshirish dasturining 20-bandida Ommaviy axborot vositalari va davriy nashrlarda davlat tilini o‘rganishga bag‘ishlangan turkum dasturlar tashkil qilish vazifasi berilgan.

Ommaviy axborot vositalarida muntazam ravishda davlat tilini o‘rganishga bag‘ishlangan ko‘rsatuvlar, eshittirishlar tashkil etib, maqolalar e‘lon qilib borishni nazarda tutuvchi ushbu band mas‘ul ijrochilari etib O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi ko‘rsatilgan. Band ijrochilarning o‘z mablag‘lari hisobidan doimiy ijro etilishi nazardu tutilgan.

Biroq, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan barcha OAV uchun mas‘ul hisoblanmasligini nazarda tutilsa, yuqoridagi qaror ijrosi

televideniya “Til — millat ko‘zgusi” nomli davlat tilida ish yuritish, xatolar ustida ishlash va nutq boyligini oshirishga qaratilgan ko‘rsatuv bilangina cheklanishini bilib olish qiyin emas.

Tilning ijtimoiy ko‘lamdagi hodisa<sup>2</sup> ekanligini nazarda tutib, uni rivojlantirishda jamiyatning barcha institutlari, ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va faol blogerlarni mavzu atrofida ixtiyoriy birlashtirish va safarbar qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jumladan, axborot makonida o‘zbek tilini rivojlantirishga qaratilgan mavzularni tartibli, maqsadli, mavsumiy emas, izchil, tizimli yoritish choralari ko‘rish pirovard natijada ko‘zlangan natijaga erishilishiga keng yo‘l ochadi.

Tadqiqot doirasida O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni ijrosini izchil ta‘minlash, raqamli makon va media muhitda o‘zbek adabiy tilining sofligini saqlash, shuningdek, 2026–2030-yillarda davlat tilining jamiyatdagi mavqeini yangi bosqichga ko‘tarishda fuqarolik jamiyati institutlari va ommaviy axborot vositalarining mas‘uliyatini oshirish maqsadida 2026–2030-yillarda davlat tilini rivojlantirish konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Loyiha davlat tilini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari va OAV rolini oshirish konsepsiyasi bo‘lib, u:

davlat tilini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, ommaviy axborot vositalarining o‘rni va rolini oshirishga qaratilgan tashkiliy poydevor yaratish;

<sup>1</sup> <https://lex.uz/docs/5058351> (murojaat sanasi: 29.09.2025).

<sup>2</sup> <https://qomus.info/encyclopedia/cat-t/til-uz-2/>



davlat tili mavqeini mustahkamlashga qaratilgan monitoring tizimi, normativ va lug'aviy bazani shakllantirish hamda tahririyatlarda adabiy muharrir institutini joriy etish;

davlat tili mavqeini mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash va keng targ'ib qilish, veb-kontentning yagona o'zbek tili segmentini shakllantirishga zamin hozirlash;

axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalangan holda davlat tilida ish yuritishning yagona talablarini joriy etish, o'zbek tili korpusini yakuniga yetkazish, sun'iy intellektda o'zbek tilining imkoniyatlarini kengaytirish;

o'zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasi samaradorligini OAVda keng tahlil qilish, natijadorligini baholash, unda media vakillarining ishtirokini sarhisob qilish singari 5 ta asosiy bosqichdan iborat.

Har bir bosqich muayyan chora-tadbirlardan iborat bo'lib, mazkur chora-tadbirlar amalga oshirish mexanizmi, muddati, moliyalashtirish manbai va mas'ul ijrochilarni qamrab olgan.

O'zbek tilini rivojlantirish va uning ommaviy axborot vositalari (OAV)dagi o'rnini oshirishda davlat organlarining ma'muriy nazoratidan voz kechib, fuqarolik jamiyati institutlari (NNTlar, blogerlar, mustaqil fuqarolar va ijodiy uyushmalar)ning jamoatchilik nazorati tizimiga o'tish maqsadida Konsepsiya davlat rahbarining 2019–2025-yillarda qabul qilingan qaror va farmonlarida belgilangan, ammo ijrosi yakuniga yetkazilmagan vazifalarni fuqarolik jamiyati kuchi bilan amalga oshirishni hamda sohada zamonaviy media-

mexanizmlarni yaratishni nazarda tutadi.

Birinchi bosqichda (2026-yil) davlat tilini rivojlantirishda fuqarolik jamiyati institutlari va OAV rolini oshirish uchun tashkiliy-strukturaviy islohotlar nazarda tutilgan.

Ushbu bosqichda asosiy e'tibor tizimning huquqiy va uslubiy asoslarini qurishga qaratiladi. Jumladan, O'zbekiston Jurnalistlari uyushmasi huzurida Til masalalari bo'yicha maxsus kengash tashkil etiladi (2026-yil II chorak).

Maxsus kengashga davlat amaldorlari emas, balki sohaning yetakchi ekspertlari — tilshunos olimlar, amaliyotchi jurnalistlar, tajribali muharrirlar va AT-mutaxassisleri jalb etiladi. Shuningdek, murakkab sohaviy mavzularni yoritishda katta tajribaga ega bo'lgan ixtisoslashgan jurnalistlar jalb qilinib, ularning terminlarni to'g'ri qo'llash bo'yicha ko'nikmalaridan keng foydalaniladi.

Ekspertlar va Maxsus kengash a'zolarining faoliyati O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan shartnoma asosida moliyalashtiriladi.

Kengash ixtiyoriy fuqarolik birlashmasi shaklida:

OAV va ijtimoiy tarmoqlarda o'zbek adabiy tili normalariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash va jamoatchilik o'rtasida keng joriy etish;

OAVda shevaga xos so'zlardan foydalanilishini tartibga solish (badiiy maqsadlar va jonli muloqotdan tashqari, rasmiy axborot dasturlari va publitsistikada adabiy tilni saqlab qolish);



Xorijdan yangi termin va atamalar qabul qilinishining aniq, shaffof va lingvistik asoslangan mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga kiritish;

Turli tanlovlar va viktorinalar tashkil etish orqali o'zbek tilini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida ommalashtirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son, "Mamlakatimizda o'zbek tilini yana-da rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmonlari va "Davlat tilini yana-da rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 20-oktyabrdagi PQ-308-son qarorida OAV uchun belgilangan, lekin ijrosi yakuniga yetmay qolgan quyidagi muhim vazifalarni qayta jonlantirish va ijrosini yakunlash:

*davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlar yuzasidan jamoatchilik nazoratining ta'sirchan shakllarini joriy etish;*

*Internet jahon axborot tarmog'idagi o'zbek tilidagi segmentni sifatli milliy kontent bilan boyitish;*

*lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida OAVning to'liq va bir xil ish yuritishini ta'minlash hamda imloviy xatoliklarni bartaraf etish;*

*axborot texnologiyalarida o'zbek tilining keng qo'llanilishini ta'minlaydigan dasturiy mahsulotlar yaratish singari bir qator vazifalarni bajaradi.*

Shu bilan birga, ushbu bosqichda OAVda til normalariga rioya qilish

bo'yicha har oylik reyting e'lon qilinadi (2026-yil III chorak). Jurnalist va blogerlar uchun Davlat tilida ish yuritish asoslari bo'yicha 1-2 oylik bepul kurslar tashkil etiladi (2026-yil IV chorakdan).

Ikkinchi bosqichda (2027-yil) Davlat tilining mavqeini mustahkamlash uchun amaliy mexanizmlar joriy etiladi.

Jumladan, Ommaviy kommunikatsiyalar bo'yicha markaz imkoniyatlaridan foydalanib, barcha media platformalarning til normalari buzilishi bo'yicha kompleks monitoringi yo'lga qo'yiladi (2027-yil I chorakdan).

Fransiya tajribasi asosida yangi terminlarni qabul qilishning shaffof mexanizmi va raqamli glossariy yaratiladi (2027-yil III chorak). Jumladan, "Yangi atamalar va neologizmlarni qabul qilish va muomalaga kiritish tartibi" reglamentini ishlab chiqiladi.

Markaziy va yirik internet-nashrlarda o'zbek adabiy tili me'yorlari va normalaridan xabardor, tahrir malakasiga ega "adabiy muharrir" lavozimini joriy etish majburiy talablar qatoriga kiritiladi (2027-yil IV chorak).

2028-yildagi umumiy chora-tadbirlarni nazarda tutuvchi uchinchi bosqichda OAVning o'zbek tilini rivojlantirish yo'nalishidagi faoliyatini rag'batlantirish, shu bilan birga, Internet tarmog'idagi o'zbek tilida yaratilgan kontentlarning uyg'unlashuviga erishish nazarda tutilmoqda.

Xususan, nufuzli "Oltin qalam" milliy mukofotiga "O'zbek tili va madaniyatini yuksaltirishga qo'shgan hissasi uchun" nominatsiyasini qo'shish, mukofot va tashkiliy xarajatlarni O'zbek tilini rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan to'liq



moliyalashtirish nazarda tutilmoqda. Shu bilan birga, milliy reytingdagi o'rniga ko'ra, til sofligini saqlagan tahririylatlarga soliq imtiyozlari yoki grantlar berish tizimi ishlab chiqiladi (2028-yil I chorakdan).

Bugungi kunda Internet tarmog'idagi o'zbek tilli segmentning alifbo xilma xilligi tufayli tarqoqligi kuzatiladi. Ayniqsa, arab alifbosidagi o'zbek tili (eski o'zbek yozuvi yoki Afg'oniston o'zbeklari imlosidagi kontent) jahon internet tarmog'ida juda kam foizni tashkil etadi. XX asr boshlariga qadar yaratilgan o'zbek tilli yozma meros ko'lami kattaligiga qaramay, raqamlashtirish jarayoni miqyosi ushbu ko'lamga mos deb bo'lmaydi. Konsepsiya ijrosi doirasida lotin, kirill va arab alifbosidagi manbalar (jadidlar merosi) birlashtiriladi. Sun'iy intellekt yordamida arab grafikasidagi adabiyotlar raqamlashtiriladi (2028-yil II chorakdan).

2029-yilgi to'rtinchi bosqichdagi chora-tadbirlar raqamlashtirish jarayonining uzviy davomidir. Bu bosqichda raqamli texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanishni yana-da ommalashtirish hamda o'zbek tilining milliy korpusini yaratish jarayonini yakuniga yetkazish belgilanmoqda.

Ushbu bosqich o'zbek tilini raqamlashtirish va sun'iy intellektga integratsiya qilishning yakuniy pallasi bo'lib xizmat qilishi nazarda tutilgan. Jumladan, davlat idoralari va OAV uchun ish yuritishning yagona til talablari Internetda keng targ'ib qilinadi (2029 yil I chorak).

Xususan, ish yuritish faoliyatida eng ko'p qo'llanadigan hujjatlar idoraviy mansublikka ko'ra xilma xil tartiblar asosida, ixtiyoriy shablonlarga moslab foydalanilmoqda.

Yuqoridagi chora-tadbir ushbu shablonlarni yagona tartibga moslab, uyg'unlashtirishni nazarda tutadi.

Sir emas, o'zbek tilidagi adabiyotlar, ma'lumotlar, maqolalar, hisobotlar, ilmiy ishlarning aksariyati raqamlashmagan, elektron shaklga o'tkazilganlari ham har xil manbalarda saqlanmoqda.

Davlatimiz Rahbarining 2025-yildagi PQ-308-son qarorida 2026-yil yakuniga qadar katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni bir joyga jamlab, ularni qayta ishlash, tahlil qilish, foydalanish imkonini beradigan "Data Lake" platformasini ishga tushirish vazifasi qo'yildi<sup>3</sup>.

Korpus lingvistikasi so'nggi o'n yillikda jadal rivojlanayotgan sohaga aylandi. Chunki dunyo tili sanalgan ingliz, nemis, rus, xitoy, arab, ispan, fransuz tillarining milliy korpuslaridan tashqari, bu tillarning ko'pida gazetalarning kompyuter korpusi, multimediali korpus, maxsus matnlar korpusi, og'zaki va yozma korpus, umummilliy va mualliflik korpuslari ham yaratildi. Shuningdek, belarus, polyak, polyak-ukrain, chex, slovak milliy korpuslari, serb, xorvat, bosniya, bolgar, bolgar-rus, makedon, shotland, ivrit, niderland, niderland-fransuz, shved, dat, norveg, island, farer, o'rta asr fransuz tili, ispan, italyan, portugal, rumin, litva, latish, grek, sharqiy arman, osetin, alban, hind, sigan, xett, fin, ural tillari, eston, veps, venger,

<sup>3</sup> <https://lex.uz/docs/7776360>



udmurt, gruzin, ingliz-gruzin, lezgin, turk, tatar, boshqird, qrim-tatar, qalmaq, buryat, mo'g'ul, arab, amxar, yapon, qadimiy yapon, baman, tojik, esperanto tillari korpuslari ham mavjud.

Yurtimizda o'zbek tili korpuslarini yaratish qoniqarli emas. Bu sohada olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari o'zbek korpus lingvistikasining nazariy asoslarini ishlab chiqish, namuna sifatida bir-ikki korpus lavhasi yaratish jarayoni bosqichida turibdi, xolos<sup>4</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2025-yil 21-oktyabrdagi O'zbek tili bayrami kuni munosabati bilan tabrigida "Bir narsani bilinglar – sun'iy intellekt dasturlari samarali ishlashi uchun ular, avvalo, o'zbek tilini mukammal darajada tushunishi zarur", – dedi<sup>5</sup>.

Yagona milliy korpusni yaratish uchun barcha yozma manbalarni uyg'unlashtirish, tilshunoslar boshlagan ilmiy-tadqiqot ishlarini moliyalashtirish va joriylanish choralarini ko'rish talab etiladi.

Konsepsiya doirasida belgilanayotgan chora-tadbirlar yillar davomida bosqichma-bosqich korpus yaratilishi uchun mantiqiy zamin hozirlab, 2029-yilda to'liq yakunlash rejalashtirilgan (2029-yil II chorak).

Davlatimiz rahbari tomonidan sun'iy intellekt imkoniyatlaridan keng va to'liq foydalanish bo'yicha qo'yilgan vaziflar ijrosi doirasida to'rtinchi bosqichda matnlarni imloviy va stilistik tekshiruvchi bepul onlayn platforma, xatolar haqida xabar beruvchi botlar va

milliy klaviatura dasturlari ommalashtiriladi (2029-yil IV chorak).

Konsepsiyaning yakuniy beshinchi bosqichi (2030-yil) nafaqat loyihadagi chora-tadbirlar, balki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmoniga 1-ilova "2020 — 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi"da belgilangan vazifalarning sarhisobi va 2040-yilgacha bajarilishi kerak bo'lgan rejalarni shakllantirishni nazarda tutadi.

Ushbu bosqichda davlatning ma'muriy nazoratisiz til sofligini saqlash mumkinligini isbotlovchi Milliy ma'ruza tayyorlanadi hamda 2040-yilgacha mo'ljallangan yangi konsepsiya ishlab chiqiladi (2030-yil III chorak).

Ushbu konsepsiyadagi chora-tadbirlarni belgilashda Fransiya, Turkiya va Janubiy Koreyaning til sofligini saqlash va ommalashtirishga qaratilgan tajribalaridan foydalanildi.

Jumladan, Fransiya tajribasi (Fransuz akademiyasi) asosida yangi chet el so'zlari kirib kelganda ularga darhol o'zbekcha muqobil qidirish va matbuot orqali muomalaga kiritish ("Terminlar banki"ni yaratish);

Turkiya tajribasi (Turk tili qurumi va jamoatchilik monitoringi) asosida OAVda til buzilishlarini aniqlashda jamoatchilik (xalq) nazoratini raqamlashtirish, til xatolari haqida xabar beradigan maxsus mobil ilova va botlar yaratish;

Janubiy Koreya tajribasi (Milliy til instituti) asosida tilni ommalashtirishda blogerlar va inflyuenserlarga grantlar

<sup>4</sup> <https://www.xabar.uz/talim/ozbek-tili-korpusi-yaratilyaptimi>

<sup>5</sup> <https://sputniknews.uz/20251021/prezident-uzbek-til-korpus-topshiriq-52873543.html>



ajratish, media-kontent orqali til madaniyatini yuksaltirish bo'yicha aniq vazifalar belgilandi.

Konsepsiyani ijroga qaratish orqali quyidagi natijalarga erishiladi:

a) OAVda davlatning ma'muriy aralashuvi kamayib, soha ichidagi o'zini o'zi tartibga solish tizimi shakllanadi;

b) Davlatimiz Rahbarining PF-5850, PF-6084 Farmonlari va PQ-308 qarorlarida belgilangan vazifalar fuqarolik jamiyati kuchi bilan sifatli yakunlanadi;

v) OAVda "adabiy muharrir" roli oshishi va maxsus kurslarda jurnalistlarning malaka oshirishi natijasida media savodxonlik yuksaladi;

g) reyting tizimi OAVlar o'rtasida til sofliqi bo'yicha ijobiy raqobatni vujudga keltiradi;

d) turli alifbolardagi manbalarning uyg'unlashtirilishi aholining tarixiy-madaniy merosimiz bilan bog'lanishini osonlashtiradi.

### References:

1. Odilov Y., Azimov I. Til siyosatini muvofiqlashtirib boradigan muassasa zarur // "Ma'rifat" gazetasi, 2019-yil 25-yanvar.
2. Artificial Intelligence for Language Learning and Teaching: A Narrative Literature Study. <https://jurnal.ar-raniry.ac.id/index.php/englisia/index>
3. Saidov H. Jamiyatning demokratlashuvi jarayonida axborot janrlarining rivojlanish omillari. - T.: "Ta'lim-media", 2020. - 135-b.
4. Нурматов А. Миллатнинг медиасаводхонлик ўлчами. <http://www.insonhuquqlari.uz/uz/news/millatning-mediasavodxonlik-olchami>.